



XALQARO MEHNAT TASHKILOTINING INSON HUQUQLARINI TA'MINLASHDAGI O'RNI

G'offorova Kamola Shuxrat qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Magistratura talabasi

e-mail: gofforovakamola2020@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xalqaro Mehnat Tashkilotining ushbu davrda kasb etgan favqulodda ahamiyati, tashkilot tarixi va tuzilish tarkibi, shuningdek, tashkilot faoliyati haqida tavsif bilan tanishish mumkin. Shuningdek, mazkur ishda ushbu tashkilot hamda O'zbekiston Respublikasi hamkorligi masalasi ham yoritilgan bo'lib, mamlakatimiz tomonidan implementatsiya qilingan Xalqaro Mehnat Tashkiloti (bundan keyin matnda XMT) konvensiyalarining O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga implementatsiya qilish jarayoni tarixi, uning ahamiyati, nazariy-huquqiy asoslari va o'ziga xos jihatlari xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Xalqaro Mehnat Tashkiloti; xalqaro mehnat standartlari; XMT; konvensiyalar; uch tomonlama vakillik; a'zo mamlakatlar; mehnat huquqlari; Birlashgan Millatlar Tashkiloti; Millatlar Ligasi; Ma'muriy kengash

Abstract: This article provides an overview of the extraordinary importance of the International Labor Organization during this period, its history and structure, as well as a description of its activities. The work also discusses the issue of cooperation between this organization and the Republic of Uzbekistan, and discusses the history, significance,



theoretical and legal foundations and specific aspects of the process of implementing the International Labor Organization (hereinafter referred to as the ILO) conventions implemented by our country into the legislation of the Republic of Uzbekistan.

Аннотация: В статье дается обзор исключительной значимости Международной организации труда в этот период, ее истории и структуры, а также описание ее деятельности. В работе также освещаются вопросы сотрудничества данной организации с Республикой Узбекистан, рассматриваются история, значение, теоретические и правовые основы, а также отдельные аспекты процесса имплементации нашей страной конвенций Международной организации труда (далее – МОТ) в законодательство Республики Узбекистан.

KIRISH. XALQARO MEHNAT TASHKILOTI TARIXI VA FAVQULODDA AHAMIYATI

Hozirgi kunda, dunyo bo'ylab, har qanday inson huquqlari buzilishi holatlariga nisbatan xalqaro miqyosda javob topish imkonsiz emas. Inson huquqlari himoyasining ijtimoiy huquqlar tizimiga kiruvchi mehnat huquqi doirasida ham dunyoning turli mamlakatlarida sodir etiladigan huquqbuzarliklarni kuzatish mumkin. Bunday vaziyatda har bir inson o'zining buzilgan mehnat huquqlarini xalqaro miqyosda murojaat qilish orqali tiklashi mumkin. Shu o'rinda, xalqaro miqyosda mehnatkashlar huquqlarini tiklashda Xalqaro Mehnat Tashkilotining o'rni va ahamiyatini ta'kidlab o'tish joiz.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti tarixi yuzasidan Birlashgan Millatlar Tashkilotidan ham qadimiyroq hisoblanib, ilk bor 1919-yilda Millatlar Ligasi huzurida mehnat qonunlari va mehnat sharoitlarini yaxshilash masalalari bo'yicha konvensiyalar va tavsiyalarni ishlab chiqish bo'yicha xalqaro komissiya sifatida tuzilgan. Tashkilot Birinchi jahon urushini



yakunishi bilan, urushni tugatilishining rasmiy e‘loni bo‘lgan Versal shartnomasi tarkibida tuzilgan edi. Bunga sabab, tashkilotning tuzilishi umumbashariy tinchlik faqat ijtimoiy adolatga asoslangan taqdirdagina amalga oshirilishi mumkinligiga ishonchni aks ettirishda edi. Xalqaro Mehnat Tashkilotiga murojaatlar qonun buzilishi tahmin etilgan davlatlar fuqarolari tomonidan amalga oshirilsada, tashkilot hamisha ijtimoiy adolatga amal qiladi va uning nazdida xodim, ish beruvchi va xodim huquqlarni tiklab bermaganlikda da‘vo qilinayotgan mamlakat ham teng, shuningdek, ushbu tashkilot barcha ayollar va erkaklar uchun munosib mehnatni rag‘batlantirish uchun munosib sharoit yaratilishini targ‘ib qiladi. Xalqaro Mehnat Tashkiloti unga a‘zo bo‘lgan barcha davlatlarda 8 soatlik ish kuni, onalikni himoya qilish, bolalar mehnatiga oid qonunlar va ish o‘rinlarida xavfsizlikni ta‘minlash yuzasidan xalqaro me‘yorlar ishlab chiqilishiga, ish bilan bandlik dasturlarini ishlab chiqish kabi yo‘nalishlarda faoliyat olib boradi. Tashkilotning eng asosiy faoliyat yo‘nalishlarini ushbu tashkilot tomonidan qabul qilingan asosiy 8 konvensiya belgilab beradi. Xalqaro Mehnat Tashkiloti tashkil etilganidan buyon boshqaruv tuzilmasining uch tomonlamaligi bilan farqlanib turadi. Uch tomonlama boshqaruv tizimi deganda milliy va transmilliy ish beruvchilar va ishchilar birlashmalariga kun tartibini belgilash va tashkilot faoliyatini amalga oshirishda hukumatlarga qo‘shilish imkoni berilishini nazarda tutish mumkin.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti faoliyatini asosan quyidagi uch yo‘nalishga ko‘ra tasniflash mumkin:

- ❖ Mehnatga oid ijtimoiy standartlarni belgilash va ularni qabul qilishga yordam beradigan chora-tadbirlarni ko‘rib chiqish;
- ❖ Hayot darajasini yaxshilashda mamlakatlarga yordam berish bo‘yicha tezkor harakatlar ishlab chiqish;
- ❖ Ijtimoiy masalalar bo‘yicha a‘zo davlatlar bo‘yicha ma‘lumot yig‘ish va tahlil qilish.



1946-yilda Millatlar Ligasi tugatilgandan so'ng, Xalqaro Mehnat Tashkiloti Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan bog'langan birinchi ixtisoslashgan muassasaga aylandi. 1919-yilda qirq beshta mamlakatdan iborat, dastlabki a'zolari soni 1971-yilga kelib 121 nafarga yetdi. Tuzilishi jihatidan Xalqaro Mehnat Tashkiloti jahon tashkilotlari orasida yagona hisoblanadi, chunki uning siyosatini shakllantirishda ishchilar va ish beruvchilar vakillari hukumatlar bilan teng ovozga ega. Xalqaro Mehnat Tashkilotining oliy maslahat organi bo'lgan yillik Xalqaro mehnat konferensiyasi har bir a'zo davlatdan to'rttadan vakildan iborat: ikkita hukumat delegati, bitta ishchi va bitta ish beruvchi delegat. Shuningdek, ularning har biri mustaqil ravishda so'zga chiqishi va ovoz berishi mumkin. Konferentsiyalar oralig'ida XMT ishi yigirma to'rtta hukumat, o'n ikki xodim va o'n ikki ish beruvchi a'zosidan iborat bo'ladi. Shuningdek, ushbu uch guruhning har biri o'n ikkita o'rinbosardan iborat bo'lgan Boshqaruv Kengashi tomonidan boshqariladi. Shveysariyaning Jeneva shahridagi Xalqaro mehnat byurosi tashkilotning kotibiyati, operativ shtab-kvartirasi, tadqiqot markazi va nashriyot uyini o'z ichiga olgan tashkilotning Bosh qarorgohi hisoblanadi.

ASOSIY QISM. XALQARO MEHNAT TASHKILOTI TARKIBI, FAOLIYATI VA TASHKILOTNING ASOSIY KONVENSIYALARI.

Xalqaro Mehnat Tashkilotining tarkibiy tuzilishi quyidagicha:

- ✓ Xalqaro Mehnat Konferensiyasi;
- ✓ Ma'muriy Kengash;
- ✓ Xalqaro Mehnat Byurosi.

Tuzilishi jihatidan Xalqaro Mehnat Tashkiloti jahon tashkilotlari orasida o'zgacha strukturaga egaligi bilan ajralib turadi, chunki tashkilotning faoliyatini shakllantirishda ishchilar va ish beruvchilar vakillari hukumatlar bilan teng ovozga ega. Xalqaro Mehnat Tashkilotining Oliy maslahat organi bo'lgan Xalqaro Mehnat Konferensiyasi har bir a'zo



davlatdan to'rtta vakildan iborat: ikkita hukumat delegati, bitta ishchi va bitta ish beruvchi delegatidan yillik hisobotlarni qabul qiladi. Konferentsiyalar oralig'idagi vaqt mobaynida Xalqaro Mehnat Tashkiloti ishini yigirma to'rtta hukumat, o'n ikki ishchi va o'n ikki ish beruvchi a'zosidan hamda ushbu uch guruhning har biridan o'n ikkita o'rinbosardan iborat bo'lgan Boshqaruv Kengashi boshqaradi. XMT faoliyati va maxsus operatsiyalari tashkilotning shtab-kvartirasida va dunyoning 40dan ortiq mamlakatlarida joylashgan vakolatxonalarini orqali amalga oshiriladi. XMT xodimlari tarkibi butun dunyo bo'ylab 100 ga yaqin millatga mansub 3000 dan ortiq kishidan iborat. Shuningdek, qirqdan ortiq mamlakatlarda mintaqaviy va hududiy filiallarga bo'linib faoliyat yuritadi.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti o'z faoliyatini o'zining tarkibiy tuzilmasiga qarab taqsimlaydi. Tashkilot asosiy uch organdan iborat bo'lib, ushbu bo'limlari haqida batafsil quyidagicha ma'lumot berish mumkin:

Xalqaro Mehnat Konferensiyasi (International Labour Conference) – tuzilishiga ko'ra Xalqaro Mehnat Tashkilotining eng yuqori organi hisoblanadi. Ushbu konferensiya ishi har yili 187 davlatdan vakillar ishtirok etadigan anjuman sifatida tashkil etilib, unda mehnat siyosati, normativ hujjatlar va global mehnat bozoriga oid masalalar muhokama qilinadi. Konferensiya mehnatning xalqaro standartlarini belgilash va tasdiqlash bilan shug'ullanadi.

Ma'muriy Kengash (Governing Body) - Tashkilotning boshqaruv organi hisoblanadi. U tashkilotning kundalik faoliyatini muvofiqlashtiradi va tashkilotning siyosiy, moliyaviy va operatsion ishlarini nazorat qiladi. Kengash 56 ta a'zo mamlakat vakillaridan iborat bo'lib, uning tarkibida har bir a'zo davlatning ishchi va ish beruvchilari vakillari ham bor. Ijroiya Kengashi tashkilotning ishlash prinsiplarini belgilaydi va qarorlar chiqaradi.

Xalqaro Mehnat Byurosi (International Labour Office) – Ushbu byuro tashkilotning doimiy va asosiy ijrochi organi bo'lib, tashkilotning boshqaruv organlari tomonidan belgilangan siyosatni amalga oshirishni ta'minlaydi. Byuro, shuningdek, barcha



texnik, ilmiy va tashkiliy ishlarni bajaradi. U markaziy ofis sifatida ishlaydi va Xalqaro Mehnat Tashkilotining barcha texnik resurslarini boshqaradi.

XALQARO MEHNAT TASHKILOTI FAOLIYATIDA TRIPARTISM YA'NI UCH TOMONLAMA BOSHQARUV TIZIMI

Uch tomonlama boshqaruv tizimi Xalqaro Mehnat Tashkiloti maqsadlariga erishishning eng maqbul usuli sifatida joriy etilgan va an'anaviy davlatlararo qonun ijodkorligi modelidan chetga chiqqan xalqaro mehnat standartlarini yaratish va nazorat qilish jarayonida o'z aksini topadi. Bir yilda bir marta chaqiriladigan Xalqaro Mehnat Konferensiyasida va Tashkilot Ma'muriy Boshqaruv Kengashining faoliyatida vakillar ishtirokida ham ushbu jarayonning amaldagi talqinini ko'rish mumkin. Jumladan, Xalqaro Mehnat Konferensiyasida har bir a'zo davlatga konferensiyaga 4 delegat yuborish huquqi berilganini hisobga olsak, ushbu vakillarning 2 nafari hukumat vakili sifatida ishtirok etsa, biri ish beruvchilar va yana biri mehnatkashlar nomidan ishtirok etadi. Shuningdek, ushbu konferensiyalar oralig'idagi vaqtda Xalqaro Mehnat Tashkiloti faoliyatini Ma'muriy Kengash boshqarib turib, uning tarkibi 28 nafar hukumatlar vakillaridan tashkil topgan bo'lsa, 14 vakil ish beruvchilardan hamda yana 14 vakil mehnatkashlar vakillaridir. Ushbu jarayonning o'zi ham tashkilotning uch tomonlama boshqaruv tizimi qay tarzda yo'lga qo'yilganligini ko'rsatib turibdi. Binobarin, ushbu tizim bir asrdan ortiq faoliyat yuritgan ushbu tashkilotning hech bir tomonga yon bermay, adolatli faoliyat yuritib kelishiga yordam berdi deyish mumkin.

XMT KONVENSIYALARI VA ULARNING AHAMIYATI

Xalqaro Mehnat Tashkiloti o'zining deyarli bir asrlik faoliyati davomida "ijtimoiy adolat korpusi"ni yaratish bilan birga xalqaro mehnat standartlarini o'z ichiga olgan konvensiya va tavsiyalarni qabul qilish vazifasini zimmasiga oldi. Tashkilot faoliyatini tartibga soluvchi konvensiyalarning umumiy soni hozirgi kunda 190 dan ortiq deb hisoblansa ham, tashkilotning tuzilishida hamda BMT doirasiga o'tishida muhim ahamiyat



kasb etgan 1919-yilgi Versal Tinchlik Shartnomasining XIII qismi hamda 1944-yilda qabul qilingan Filadelfiya shartnomalari kabi, XMT Konstitutsiyasi hisoblanuvchi ushbu ikki hujjat hamda tashkilotning muhim 8 konvensiyalari favqulodda ahamiyat kasb etadi va tashkilotning aniq maqsadini belgilab beradi. XMTning asosiy ustavini o‘z ichiga olgan Versal shartnomasining XIII qismi muqaddimasida "tinchlik faqat ijtimoiy adolatga asoslangan bo‘lsa, o‘rnatilishi mumkin" deb yozib qo‘yilgan. XMTning ijtimoiy adolatga bo‘lgan umumiy majburiyati 1944-yildagi Xalqaro Mehnat Tashkilotining Yo‘nalish va Maqsadlari to‘g‘risidagi deklaratsiyada, bugungi kunda XMT Konstitutsiyasining bir qismini tashkil etuvchi "Filadelfiya deklaratsiyasi"da yana bir bor tasdiqlangan. Shuningdek, XMTning turli konvensiyalari va tavsiyalari orqali ham xalqaro mehnat standartlari belgilab qo‘yilgan bo‘lib, ushbu konvensiyaviy hujjatlar tashkilotga a‘zo davlatlar tomonidan ratifikatsiya qilingan hamda qonuniy kuchga ega. Ushbu asosiy 8 konvensiya qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin¹:

- ❖ “Birlashish erkinligi va ishchilarning tashkilot erkinligi to‘g‘risida”gi Konvensiya;
- ❖ “Tashkilot va jamoaviy bitimlar to‘g‘risida”gi Konvensiya;
- ❖ “Majburiy mehnatga qarshi” Konvensiya;
- ❖ “Majburiy mehnatni bekor qilish to‘g‘risida”gi Konvensiya;
- ❖ “Bolalar mehnatini taqiqlash to‘g‘risida”gi Konvensiya;
- ❖ “Bolalar mehnatining eng yomon shakllari to‘g‘risida”gi Konvensiya;
- ❖ “Teng mehnat uchun teng ish haqi to‘g‘risida”gi Konvensiya;
- ❖ “Mehnatda kamsitishlarga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Konvensiya.

Yuqorida keltirib o‘tilgan konvensiyalar XMT faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi. Ushbu konvensiyalar tartibga soluvchi munosabatlar konvensiyalar nomidan ham ochiq anglashiladi, jumladan, “Birlashish va ishchilarning tashkilot erkinligi to‘g‘risida”gi konvensiya mehnatkashlarning kasaba uyushmalariga birlashish erkinligi va

¹ <https://www.ilo.org/international-labour-standards/conventions-protocols-and-recommendations>



uni tashkil etish hamda, ular orqali mehnatkashlar o‘z huquqlarini himoya qilishda erkin bo‘lishini ta‘minlashga chaqirsa, “Bolalar mehnatini taqiqlash to‘g‘risida”gi konvensiya qaysi turdagi bolalar mehnatini taqiqlash, shuningdek, bolalar mehnatiga minimal yosh sifatida 15 yosh belgilanishiga chaqiradi.

XMT konstitutsiyaviy hujjatini tashkil etuvchi Versal shartnomasining XIII qismi, Filadelfiya Deklaratsiyasi va tashkilotning qolgan konvensiyaviy hujjatlari orqali belgilangan xalqaro mehnat standartlari va XMT nazorat organlarining qarorlari mehnat huquqlari, shuningdek, mahalliy xalqlarning huquqlari sohasida inson huquqlari bo‘yicha xalqaro va mintaqaviy hujjatlar va huquqshunoslikning rivojlanishiga katta ta‘sir ko‘rsatib kelmoqda. Ushbu hujjatlarning favqulodda ahamiyati a‘zo davlatlar tomonidan umume‘tirof etilgan xalqaro mehnat va ijtimoiy standartlarning tan olinishida va butun XMT konvensiyalariga a‘zo mamlakatlar mehnatkashlarining belgilangan standartlar bo‘yicha huquqlari ta‘minlab berilishida ifodalanadi. Shuningdek, ushbu vaziyatda agar a‘zo mamlakatlar XMTning konvensiyalariga qo‘shilmagan va ratifikatsiya qilmagan bo‘lsalar, bunda vaziyat qanday tus olishi haqida savol tug‘ilishi mumkin. Ta‘kidlab o‘tish joizki, ushbu vaziyatda ham javob ijobiydir, chunki, a‘zo mamlakatda mehnat huquqlari ta‘minlanishi uchun mamlakatning XMTning barcha konvensiyalariga qo‘shilishi shart bo‘lmaydi, bunda a‘zo mamlakat XMTga qo‘shilgan davrda xalqaro umume‘tirof etilgan ya‘ni XMTning yuqorida sanab o‘tilgan konstitutsiyaviy hujjatlarida keltirilgan mehnat standartlarini ham tan olgan hisoblanadi. Ya‘ni XMT tomonidan belgilangan umumiy mehnat standartlari unga a‘zo bo‘lgan barcha mamlakatlar uchun majburiy xarakter kasb etadi. Bunda davlatning ma‘lum konvensiyani ratifikatsiya qilishi, aynan konvensiya bilan belgilangan mehnat huquqining ma‘lum bir sohasini takomillashtirishga xizmat qiladi



deyish mumkin. Fikrimiz isboti sifatida G.Yuldasheva va N.Gofurovalarning “Inson huquqlari” nomli kitobida keltirilgan ushbu satrlarni keltirib o‘tishning o‘zi kifoya²:

“1998-yilda Xalqaro mehnat konferensiyasi mehnat sohasidagi asos soluvchi tamoyillar va huquqlar to‘g‘risida deklaratsiyani qabul qildi. Unda ta’kidlanishicha, XMTga a’zo davlatlar (ular tegishli konvensiyalarni ratifikatsiyalagan yoki yo‘qligidan qat’i nazar) faqat XMTga a’zo bo‘lganliklarining o‘zi sababli ham mehnat sohasidagi fundamental prinsiplar va huquqlarga rioya etishlari, ularni qo‘llashlari hamda hayotga sidqidildan tatbiq qilishlari” shart. Bu asos soluvchi tamoyillar va huquqlar quyidagilardan iborat:

- **mehnatkashlar va ish beruvchilarning tashkilotga birlashish hamda jamoa muzokaralarini yuritish huquqi;**
- **majburiy mehnatning barcha shakllariga barham berish;**
- **bolalar mehnatini ta’sirchan taqiqlash;**
- **mehnat va mashg‘ulotlar sohasidagi kamsitishlarni bartaraf etish.”**

Bundan tashqari XMTning a’zolari tomonidan qabul qilinuvchi, shunchaki a’zolik orqali umume’tirof etilgan majburiyatlar haqida mutaxassis bo‘lgan Mo‘minov hamda Tillaboyevlar fikriga ko‘ra³, “1998 yili Xalqaro Mehnat Konferentsiyasida “Xalqaro mehnat tashkilotining mehnat sohasidagi asosiy tamoyillari va huquqlari deklaratsiyasi hamda uni amalga oshirish vositalari” qabul qilindi. Deklaratsiyada XMT 8 ta konventsiyani asosiy deb tan olishni e’lon qildi. Uning asosiy deyilishiga sabab shuki, barcha a’zo davlatlar o’sha konvensiyalarni ratifikatsiya qilmagan bo‘lsalar ham, Tashkilotga a’zolik majburiyatidan kelib chiqqan holda, konventsiyada

² Inson huquqlari.Yuldasheva G, Gofuurova N.2023

³ Инсон_хуқуқлари_Мўминов_Тиллабоев.pdf



keltirilgan majburiyatlarni bajarishlari va undagi qoidalarning amalga oshirilishiga ko‘maklashishlari shart hisoblanadi”.

XORIJIY MAMLAKATLAR VA XALQARO TASHKILOTLAR BILAN SAMARALI HAMKORLIK

XMT o‘ziga a‘zo bo‘lgan mamlakatlarga tadqiqotlar va tahlillar o‘tkazishda ya‘ni mehnat bozorini va bandlik holatini chuqur tahlil qilishga asoslangan turli ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish va shu kabilar bilan, shuningdek, davlatlarga texnik yordam va maslahatlar berish orqali ham hamkorlik qiladi. Bunda, tashkilot bandlikni yaxshilash va ijtimoiy himoyani mustahkamlash bo‘yicha ham konkret tavsiyalar berib boradi. Shuningdek, tashkilotning a‘zo davlatlarga butun dunyo bo‘ylab ish bilan ta‘minlash dasturlarini ishlab chiqish bilan ishsizlikni kamaytirishga yordam beradi. Bundan tashqari, XMT mamlakatlar fuqarolarini o‘qitish va malaka oshirishiga yordam berish orqali ham ushbu yordam dasturlarini takomillashtiradi.

XMTning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik sohasi juda keng deyish mumkin. Jumladan, BMTning boshqa agentliklari, masalan, BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP), Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti(WHO), BMTning Butunjahon bolalar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha tashkiloti(UNICEF) kabi faol tashkilotlar bilan XMTning uzviy hamkorligi mavjud.. Bu hamkorlik iqtisodiy o‘rish, barqaror rivojlanish, sog‘liqni saqlash va ta‘lim sohalariga va bolalar mehnati bilan bog‘liq masalalarga qaratilgan. XMT va BMTning boshqa tashkilotlari hamkorlikda BMTning Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (Sustainable Development Goals) dasturini amalga oshirishga hissa qo‘shadi. Ushbu dasturning sakkizinchi maqsadi "Samarali va barqaror ish o‘rinlarini yaratish"ga alohida e‘tibor berish haqida ham to‘xtalib o‘tadi. Shuningdek, XMT, Jahon Savdo Tashkiloti va Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi shuningdek, Jahon Banki kabi xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar bilan uzluksiz hamkorlik qiladi. XMT bu tashkilotlar bilan ish bilan ta‘minlash, ijtimoiy himoya



va mehnat bozorlarining barqarorligini ta'minlash bo'yicha qo'shma strategiyalar ishlab chiqadi. Masalan, XMT va XVJ birgalikda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda ijtimoiy himoyaning kuchaytirilishini ta'minlash uchun hamkorlik qilganligini keltirib o'tish mumkin.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XALQARO MEHNAT TASHKILOTI HAMKORLIGI

O'zbekiston Respublikasi 1992-yil 13-iyulda Xalqaro Mehnat Tashkilotiga a'zo bo'lib kirdi. Hozirgi kunda O'zbekiston tomonidan XMTning 25 konvensiyasi va bir protokoli ratifikatsiya qilingan. Ushbu hujjatlardan 20ta konvensiya va bir protokol amalda kuchga kirgan bo'lib, so'nggi ikki konvensiyaga mamlakatimiz 2024-yil qo'shilgan hamda ushbu konvensiyalar 2025-yilda kuchga kirish arafasida⁴.

O'zbekiston Respublikasi va XMT hamkorligi uzoq tarixga ega jarayon hisoblanadi. Jumladan, O'zbekiston 2019-yildan XMT bilan faol hamkorlikni yo'lga qo'yib, tashkilotning 8ta konvensiyasini ratifikatsiya qildi. 2024-yilning iyul oyida XMT Bosh direktori Gilbert F.Xunbo tashrifi davomida, keyingi muhokamalar davomida O'zbekiston va XMT hamkorligida sezilarli yutuqlarga erishilgani, jumladan, O'zbekistonda mehnatga oid 40 dan ortiq milliy me'yoriy hujjatlar qabul qilingani va 22 ta xalqaro konvensiya ratifikatsiya qilingani, hamda O'zbekistonning XMT standartlariga sodiqligi ta'kidlab o'tildi⁵. Shuningdek, O'zbekiston ilk bor XMT boshqaruv kengashiga saylangani va bu mamlakat uchun ulkan yutuqligi ta'kidlab o'tilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR. XALQARO MEHNAT TASHKILOTI FAOLIYATINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH

⁴ https://normlex.ilo.org/dyn/normlex/en/f?p=1000:11200:0::no:11200:p11200_country_id:103538

⁵ <https://www.ilo.org/resource/news/ilo-and-uzbekistan-agree-develop-new-programme-improve-labour-conditions>



Xulosa qilib shuni ta’kidlash mumkinki, tashkilot faoliyatini samarali va inson huquqlarini ta’minlashda jahon miqyosida o’zining yuqori o’rniga ega deb hisoblash mumkin. Buni tashkilotning ko’plab a’zo mamlakatlarda majburiy mehnat va bolalar mehnatini yo‘q qilishga qilgan tashabbus va harakatlaridan anglash mumkin. Mehnat huquqi katta soha hisoblanib, ushbu sohani xalqaro ravishda boshqarib borish ham bugungi kunning dolzarb vazifasi va ushbu tashkilot bu vazifani samarador amalga oshirmoqda. XMTning global miqyosda tutgan o’rni va roli haqida o’z vaqtida Xalqaro kasaba uyushmalari konfederatsiyasi Bosh kotibi Sharon Berrou quyidagicha iqtibos aytib o’tgan edi:

"Xalqaro Mehnat Tashkilotining ijtimoiy adolatni targ’ib qilish bo’yicha mandati ishchilar o’zlarining asosiy huquqlaridan mahrum bo’lgan dunyoda juda muhimdir". Tadqiqotimiz davomida XMT sha’niga aytilgan ushbu so’zlarda haqiqat yashirin ekaniga amin bo’lsakda, tashkilot faoliyatini yanada rivojlantirish uchun nazariy va amaliy takliflar bildirib o’tilishi kerak degan xulosaga keldik.

Birinchi taklifimiz bu XMTning, mehnat bozoridagi o’zgarishlarga moslashishishi haqida. Chunki, hozirgi kunda raqamli va avtomatlashtirilgan mehnat bozorlariga moslashish va bunda ushbu tashkilotning adaptatsiya jarayonida ishtirok etishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi taklifimiz butun dunyoda ijtimoiy himoya tizimlarini kuchaytirish haqida bo’lib, nafaqat ishchilar va vaqtinchalik ishsizlar sharoitini yaxshilash ham davr talabiga aylanib bormoqda.

Uchinchi va so’nggi taklifimiz bu mehnat sohasida gender tengligini ta’minlash masalasi bilan bog’liqdir. XMT, ayniqsa, ayollarni mehnat bozorlarida teng imkoniyatlar bilan ta’minlash bo’yicha muhim ishlarni amalga oshirgan bo’lsa-da, hali ham ko’plab mamlakatlarda shaxsning jinsiga qarab to’lanadigan haq, ishga joylashishda diskriminatsiya va ijtimoiy rol kabi masalalar mavjudligini tan olmay ilojimiz yo‘q.



Xulosa sifatida aytish mumkinki, XMT uchun oldinda bajarilishi kerak bo'lgan vazifalar talaygina hamda tashkilotning erishgan yutuqlarini ta'kidlab o'tish joiz. Kelajakda XMT va O'zbekiston Respublikasi o'rtasidagi hamkorlikning rivojlanishini ta'kidlab, ushbu hamkorlik O'zbekiston xalqining foydasiga xizmat qilishi mumkinligini tahmin qilish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Inson huquqlari. Yuldasheva G, Gafuurova N.2023
2. <https://www.ilo.org/international-labour-standards/conventions-protocols-and-recommendations>
3. Inson huquqlari. Yuldasheva G, Gofuurova N.2023
4. Инсон_хуқуқлари_Мўминов_Тиллабоев.pdf
5. https://normlex.ilo.org/dyn/normlex/en/f?p=1000:11200:0::no:11200:p11200_country_id:103538
6. <https://www.ilo.org/resource/news/ilo-and-uzbekistan-agree-develop-new-programme-improve-labour-conditions>
7. <https://onlinelibrary.wiley.com/journal/1564913x>